

2022 yil

Farg'ona shahar

Фаргона вилояти ИИБ ЖХХ ЙХХБ МЭМБ" rahbari А. Мирзозов bundan buyon bir tomondan «Xaridor» deb yuritiladi, nizom asosida xarakat qiluvchi, ikkinchi tomondan MChJ «Ultramax Road Build» rahbari M. Mirazizov nizom asosida ish yurituvchi bundan buyon «Sotuvchi» deb yuritiladi va quyidagilar haqida ushbu shartnoma tuzildi.

### I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. «Sotuvchi» o'ziga Tegishli bo'lgan mol-mulkni sotish, «Xaridor» esa qabul qilib olingan maxsulot yoki tovar (ko'rsatilgan xizmat) uchun to'lovlarni belgilangan tartibda amalga oshirish majburiyatini oladilar.

### II. SHARTNOMA NARXI

2.1.

№	Товар номи	Ўлчов бирлиги	Товар сони	Бирлик учун бошланғич нарх	Бирлиги учун келишилган нарх ККС билан	Позиция учун келишилган сумма ККС билан
1	Graco Line Lazer V 3400 Серии Standart	дона	3	120 000 000	110 000 000	330 000 000
<b>Жами</b>						<b>330 000 000</b>

Shartnomaning umumiy summasi: 330 000 000 (uch yuz o'ttiz million) сум, ККС билан

### III. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI.

3.1. «Xaridor» ko'rsatilgan xizmatning 30 % (foiz) miqdorida pul mablag'ini oldindan o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi. Qolgan 70% (foiz) qismini «Sotuvchi» tomonidan ishlar to'liq bajarilib, hisob-fakturalarni taqdim qilingandan so'ng amalga oshiriladi.

3.2. Tovarlarni «Sotuvchi» ning transportida yetkazib berilganda transport xarajati o'zaro kelishilgan xolda qo'shimcha belgilanadi.

### IV. TOVAR YETKAZIB BERISH MUDDATI.

4.1. «Sotuvchi» mazkur shartnoma qonuniy kuchga kirgandan so'ng tovarni 30 kun muddat ichida «Xaridor» ga bajarilgan ishlarni ko'rsatishi shart.

### V. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

5.1. «Sotuvchi» ning xuku va majburiyatlari:

- Shartnomada ko'rsatilgan talablarga rioya qilgan xolda o'z vaqtida «Xaridor»ga yetkazib BERISH ;

- Shartnomaning shartlari «Xaridor» tomonidan buzilganda ko'rsatilayotgan tovarni to'xtatib qo'yish Huquqiga ega:

- Tegishli darajada tovar yetkazib berilgandan so'ng, sifatli bo'lmagan tovarni ushbu shartnomaning 2-bandi talablarida ko'rsatib o'tilgan Shartnomaning umumiy so'mmasidan sifatli bo'lmagan tovar baxosini qaytarib BERISH. Sifatsiz tovar haqida Sotuvchiga xabarnoma olgandan so'ng tomonlar o'rtasida sifatsiz tovarlarni qaytarib BERISH bo'yicha o'zaro dalolatnoma tuziladi.

- «Sotuvchi» yetkazib bergan maxsulotlarini hisob-varaqlarda to'liq va aniq nomini, maxsulot navini, kategoriyasini va boshqa ko'rsatkichlarini ko'rsatishi shart. Shuningdek, hisob-varaqlarni belgilangan tartibda raqamlab, to'liq rekvizitlarni rasmiylashtirish lozim.

5.2. «Xaridor» ning Huquq va majburiyatlari:

- «Xaridor» Shartnomada belgilangan talablarga rioya qilgan xolda to'lovlarni amalga oshirish, tovarni dalolatnoma tuzib ushbu Shartnomada va qonun xujjatlarida belgilangan butlash tartibiga, soniga, sifatiga qarab o'z vaqtida maxsulotni qabul qilib olishi lozim.

- Tegishli darajada sifatli bo'lmagan mol-mulk kelib tushganligi aniqlangandan so'ng, ushbu to'g'risida Tegishli dalolatnoma tuzilib bu haqida 3 kun ichida «Sotuvchini» ni o'gohlantirish kerak.

- To'liq rasmiylashtirilmagan xamda maxsulotning sifati, navi va kategoriyalari ko'rsatilmagan hisob-varaqlar bo'yicha to'lovlar amalga oshirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

